



MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



A.AVLONIY NOMIDAGI  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



JIZZAX VILOYATI  
PEDAGOGIKA MARKAZI

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB  
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI  
(2024-YIL, 15-IYUN)**

# **MATERIALLARI**

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND  
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:  
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
ONLINE CONFERENCE  
(JUNE 15, 2024 Y)**

# **MATERIALS**





## YOSHLAR TA'LIM - TARBIYASIGA KITOB O'QISH SAN'ATINI SINGDIRISH ORQALI MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH

*F.X.Abdullayev*

*Andijon viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi bo'lim boshlig'i*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada muallif aynan yoshlar tarbiyasida kitob o'qish san'atiga o'rgatish orqali ularda vatanparvarlikni singdirishga qator tavsiyalar berishga harakat qilgan. Shu bilan birga yoshlar ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdirib, ajdodlarimiz amal qilgan bebaho qadriyatlar, an'analar, betakror udumlar asosida ma'naviy immunitetni barqarorlashtirish globallashtirish jarayonida g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar.** Kitob, ta'lim, tarbiya, vatanparvarlik, ma'naviyat, milliy urf-odat, g'oya, qadriyat, mexr-muruvvat.

**Аннотация:** В данной статье автор постарался дать ряд рекомендаций по воспитанию патриотизма у молодежи путем обучения ее искусству чтения. В то же время крайне важным в процессе глобализации становится внедрение в сознание молодежи идеи национальной независимости, стабилизация морального иммунитета, основанного на бесценных ценностях, традициях и уникальных традициях, практикуемых нашими предками.

**Ключевые слова.** Книга, образование, воспитание, патриотизм, духовность, национальная традиция, идея, ценность, доброта.

**Abstract:** In this article, the author tried to give a number of recommendations to inculcate patriotism in young people by teaching them the art of reading. At the same time, instilling the idea of national independence into the minds of young people, stabilizing the moral immunity based on the priceless values, traditions, and unique traditions practiced by our ancestors, becomes extremely important in the process of globalization.

**Keywords.** Book, education, upbringing, patriotism, spirituality, national tradition, idea, value, kindness.

Ajdodlarimiz ko'p asrlar davomida mardlik g'oyalari, naqshbandiya ta'limotining "Qo'ling mehnatdayu - qalbing Oллоhda bo'lsin", degan aqidalariga amal qilib kelgan. Milliy qadriyat va urf-odatlarimiz ana shunday mezonlar asosida shakllangan.

Bugungi kundagi tinch va farovon yurtimizda kamol topayotgan yoshlar ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdirib, ajdodlarimiz amal qilgan bebaho qadriyatlar, an'analar, betakror udumlar asosida ma'naviy immunitetni barqarorlashtirish globallashtirish jarayonida g'oyatda muxim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni iqtidorlarini namoyon qilish imkonini beruvchi turli ko'rik-tanlovlarning o'tkazilayotganligi, iqtidorli yoshlarimizga Zulfiya, Nihol mukofotlarining ta'sis etilganligi bularning yaqqol misolidir. Bu tanlovlarda o'z iste'dodlarini namoyon qilish jarayonida go'zal va betakror mustaqil Vatanimizni madh qilishlari, mustaqillik g'oyalarini tarannum etishlari nafaqat o'zlarining ongi va shuuriga ijobiy ta'sir etadi, balki televideniye va

radio eshittirishlarini kuzatib borayotgan, gazeta va jurnallarda chop etilayotgan maqolalari orqali barcha yoshlarimizga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Milliy tuyg'u oddiy so'zlar bilan emas, balki ijodkor yoshlarimizni yurakni larzaga keltiruvchi diltortar navolari, sexrli qo'shiq va raqslari, Ona-zaminni ulug'lovchi, ajdodlar merosini qadrllovchi, ular ruxiga buyuk extirom ila yozilayotgan she'r va xikoyalari, bilan xar bir xonadonga kirib bormoqda. Shu bilan birga bugungi yoshlarimizning sportda erishayotgan yutuqlari xam milliy tuyg'uni jo'sh urdirib, milliy immunitetning ortib borishiga xizmat qilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xo'sh barkamol avlod tarbiyasida yana nimalarga e'tibor berishimiz kerak ?- degan savol tug'iladi.

Kitob o'qish san'atini yoshlar ongiga singdirish. Bolalarni qo'liga kitob olishi juda ko'p narsani mantiqan o'ylashga da'vat etadi. Bugungi kunda ayrim farzandlarimiz o'zbek xalq ertaklarini o'qishni o'rniga kompyuter, telefon "nag'malari"ga maxliyo bo'layotganligi xam sir emas...

Albatta kompyuter savodxonligi bugungi yoshlarimiz uchun juda zarur, lekin afsuski ayrim yoshlarimiz, ota-onalar, ustozlar nazoratidan chetda qolish natijasida, milliy mafkuramizga yot bo'lgan videotasmalar, bexayo filmlar, jangari kinolar ta'siriga tushib qolmoqdalar. Bu "nag'malar" natijasida xech bir xalqning lug'atida uchmaydigan, faqat o'zbeklarga xos bo'lgan o'zbekona ibo-xayo, o'zbekona lutf kabi so'zlar va ruxiy kechinmalar o'rniga bemexrlik, bexayolik kabi illatlar yoshlarimiz ongini zaxarlashga urinmoqda.

Shunday ekan bunday zararli odatlarni faqat o'quvchilarning kitobni e'zozlashga o'rgatish, kitob o'qishga qiziqish uyg'otish, ota - ona ibrati, pand-nasixati va shaxsiy namunasi orqali bartaraf etish mumkin. Donishmand xalqimiz bejizga "Qush uyasida ko'rganini qiladi" demagan. Chunki kitobni o'qish, har bir sahifasidagi sexrli so'zlar ma'nosini tushunib, uni e'zozlash orqali insonlar o'z xalqi, Ona-Vatanini e'zozlashni, dasturxon atrofida yoyinki oila davrasida ota qo'lida kitob bilan undagi xikmatga to'la so'zlarni o'qib, farzandiga uqtirishi, hayotiy misollar bilan omuxtalashtirib nasixat qilishi o'zbek xonadonidagi milliy immunitetni shakllantirishga asos bo'ladi. Zero kitobni ulug'lash ilmni ulug'lash demakdir. Xalq pedagogikasi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, pedagogika tarixi Payg'ambarimiz Muxammad Mustafu(SAV) davrlariga borib taqaladi. Shu borada Payg'ambarimiz Muxammad Mustafu (SAV)ning Xadisu-shariflarida ham ilmga alohida ahamiyat berilgan. "Beshikdan qabrgacha ilm izla" degan xadisi-shariflarini mushohada qiladigan bo'lsak, ilm faqat insonlargagina xos fazilat ekanligini guvohi bo'lamiz. Ilm oliy martabalarining oliyroq'idir. Ilm sohiblari o'z ilmlarining karomatlaridan barxayotdir. Kimki ilm cho'qqilarini zabt etib o'z ilmlari bilan insonlarga nafi tegsa, uning nomi tarix sahifalarida mangulikka saqlanib qoladi. Mana shunday ibratli umr kechirgan allomalarimiz hayoti va ijodi bilan o'quvchi-yoshlarni tanishtirishda nafaqat ustozlar, balki ota-onalar xam tanishtirib borsalar va o'zlari shaxsiy namuna bo'lishlari zarur. Shu o'rinda Bexbudiy bobomizning ushbu fikrlari bugun ham o'z kuchini yo'qotmaganligini xis qilamiz. "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebaxra millat boshqalarga paymol bo'lur".

Kitoblar juda ko'p, xo'sh o'quvchi o'qishni qaysi kitobdan boshlasin? Siz to'g'ri maslahat bering. To'g'ri yo'l ko'rsating. Bola o'zi tushunadigan va o'zi qiziqayotgan fanga oid kitoblarni o'qisin. Asarda ilgari surilgan badiiy, ilmiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy, ta'lim-tarbiyaviy g'oyalarni anglab yeta olsin. Ma'lum vaqtdan so'ng kitobni yana bir karra o'qib chiqsin. Chunki kitobni bir marta emas, takror o'qisa, undagi voqea-xodisalarga nisbatan munosabati mukammalroq bo'ladi.

Kitob o'qigan odamdan yomonlik chiqmaydi. U sotqinlik qilmaydi, xudbin bo'lmaydi, yurtini bexad sevadi, unga jon fido qiladi, millatini ulug'laydi, millati bilan faxrlanadi. Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri Muxammad Yusufni hayoti va ijodini misol qilib keltirish mumkin. Xalq sevgan shoir M.Yusufning xar bir misralarida Ona-Vatanga bo'lgan mexr-muxabbati, sog'inchlari limmo-lim ekanligi, she'rlarining xar bir satrlarida ufurib turganligini quyidagi misralarni o'qib xis qilamiz .

Kuzda ketgan turna qaytgandek bahor  
Bir kun xuzuringga qaytishlarim bor,  
Uzrimni o'zingga aytishlarim bor,  
Ey mening yuragim yo'qlagan diyor!

Qaytarman, ammo qay axvolda bilmam,  
Balki unda meni bukkani bo'lar g'am.  
Balki, qaytmoq nasib etmas menga ham,  
Cho'lponi yodidan chiqmagan diyor...

Oddiy qishloq bolasining beg'ubor qalbida nish urgan Vatan sog'inchlari uning otashqalb qalamiga to'kilib satrlarga aylanganligini ko'rish mumkin.

Demak ota-onalarimiz o'z farzandlariga M.Yusufning "Saylanma" nomli kitobini sovg'a qilsa, u ota-ona farzandining qalbida milliy immunitetni shakllantirgan bo'ladi. U kitobni o'qib, mushohada qilsa, farzandining ma'naviy dunyoqarashini o'stirgan bo'ladi. Farzand uchun ona muqaddas, ota mo'tabar. Farzandning o'sib ulg'ayishi, kamol topishi uchun onaning xizmati beqiyos. To'qqiz oydan ortiq o'z qornida ko'tarib yurish, toki voyaga yetgunga qadar kechalarni bedor o'tkazish, nimaiki yaxshi narsalar bo'lsa jigarbandiga ilinish, uning kamoli uchun kerak bo'lsa jon fido qilish kabi fazilatlar faqat onalarga xos. Ona Vatanchi! Ona vatanni farzandlar baxtli kelajagi uchun olib borayotgan siyosati, ona va bolaning sog'ligini muxofaza qilish, uni komil inson bo'lishligi uchun amaliy faoliyatlar o'qishi, xunurli bo'lishi uchun yaratilayotgan sharoitlar bu kabi ishlarning sanog'i bexisob. Demak vatan ham ona kabi muqaddas, ota kabi mo'tabar.

Bugungi yosh onalarimiz bolalardagi milliy immunitetni qanday shakllantirayaptilar degan savol bilan murojaat qilamiz. Ular o'z go'daklariga ona allasi orqali Ona-Vatanni sevishni, go'zal tabiatini betakror ekanligi, tol yog'ochdan qilingan beshik bolaning vatani ekanligini o'z allalarida jajji go'daklar yuragiga jo qilayaptilarmi? – degan savolga javob topish mushkulroq bo'lmoqda. Chunki bugungi yosh onalarimiz alla aytishga e'tiborsizroq qaramoqdalar. Yoki aytgan allalari so'zsiz ichki musiqa bilan xirgoyi qilinmoqda. Bolalariga bo'lgan mehrni alla deb nomlangan sexrli qo'shiqlari orqali izxor qilmayaptilar. Millat beshigi onalar

qo'lida ekan, bugun onalarimizga allaning tarixiy axamiyati va uning farzand tarbiyasidagi o'rni xaqida hayotiy va ilmiy misollar bilan tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Mana bu rasmga bir e'tibor bering-a. Jajjigina qizloq tolbeshini Vatan bilib, o'sha aziz go'shasiga talpinmoqda. Beshigining pardasidan mo'ralab, xuzur tuyg'usini xis qilmoqda. Bu mo'ralashlarda Vatan mexri, yurt ishqini uning yuragini to'lqinlantirgan bo'lsa ajab emas(1-rasm).



### **1-rasm. Chaqaloqlarda Vatan mexri.**

Beshingga talpinasan bolajon,  
Jajjigina yuragingda hayajon,  
Go'sham deya mo'ralaysan qaqajon,  
Yurtga mexring boshlanibdi beshikdan,  
Millatingga munosib bo'l bolajon.

Xali tili chiqib ulgurmagan, xali atak-chechak qilib yurishga urinmagan go'dakkinaning ko'nglida Ona-Vatan mexri beshigidan boshlanayotganiga nishona bu.

Farzandlar baxti, kelajagi uchun jon kuydirayotgan yurtboshimizning bugungi siyosati onalar allasida yangrasa, otalar pandu- nasixatlarida aks etsa, ustozlar sabog'ida mujassamlashtirilsa, mahalla oqsoqollari duolarida takrorlansa ayni muddaodir. Farzandlarimiz bugungi yangi O'zbekiston uchun hayotini, jonini fido qilishga tayyor vatanparvar, komil insonlar bo'lib yetishishida xamkorlik pedagogikasi asosida ish tashkil qilayotganligidan dalolatdir.

Har bir o'quvchi o'zi alohida bir olam. Pedagog yoki ota-ona o'zi o'rgangan nazariy qoidalar asosida bolani tarbiyalayman deb o'ylamasdan, balki kuzatish, tajriba, xulosa chiqarish asosida takomillashib bormoqda.

Shu o'rinda o'qituvchilar, ota-onalar uchun murakkab va ma'suliyatli, ayni paytda dolzarb bo'lgan qator vazifalarni bajarish uchun quyidagi xislatlarni o'zlarida singdirib olgan bo'lishi kerak deb o'ylayman.

-Milliy g'oya, milliy mafkura hamda iqtisodiy islohatlar mohiyatini tushunib olgan bo'lishlari;

-umuminsoniy, milliy qatriyatlarni bilishlari;

-vatanning baxt-saodati, porloq yorug' istiqboli, farovon kelajagiga ishonish, zarur bo'lsa bu yo'lda jon fido qila olishlik, shogirtlaringiz qalbiga vatanga cheksiz muxabbat, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak fazilatlarni singdirish uchun ta'sirchan samarali usullarni izlab topish va amaliyotga qo'llay olishingiz;

-ta'lim jarayonida o'quvchilar diqqatini bilimga qaratib uni jarayon oxirigacha saqlab tura olishlik bilan dars (ta'lim) samaradorligini (oilada dars tayyorlash jarayonida) oshiring;

o'quvchilarning yosh xususiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib berilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarni ilmiy asoslab bering;

-dars jarayonida yangi pedagogik texnologiya usullaridan unumli foydalana bilishlik;

-o'quvchilarga mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarish, boshqalar fikrini eshitish, tushunish, xurmat qilish va o'z fikrini tortinmasdan lo'nda, puxta, aniq bayon qila olishlik malakalarini o'rgating;

-o'quvchilarni o'rtaga tashlangan muommolarni yechish uchun hamkorlikda, bir-birlari bilan do'stona munosabatda bo'lib, mavjud darslik, qo'llanma laboratoriya jihozlaridan to'g'ri foydalangan holda darsda faol ishtirokchilar bo'lishligini ta'minlash;

-maktab, oila va mahalla hamkorligidan to'liq foydalash;

-pedagogik mehnatning samaradorligini tahlil etish yo'llarini biling;

-fanlarning tarixiy, zamonaviy rivojlanishini va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna oling;

-dunyoviy va jamiyat haqidagi bilimlarni chuqur va keng nuqtai nazardan anglay bilish;

-internet tarmog'i to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi bilan birga o'z bilimingizni oshirishda foydalana oling;

-sizdan ta'lim-tarbiya oluvchi o'quvchilaringiz bilim, ko'nikma va malakalarini xolisona baholang va nazorat qiling;

-ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Ta'lim berish davomida shogirdlaringizga (farzandlaringizga) tarbiya bering.

Ana shu xislatlarni har bir o'qituvchi va ota-ona egallash bilan birga o'z vaqtida hayotga tadbiq etib borsa yoshlarimiz ongi va shuurida milliy g'oya tuyg'ulari faqat yurtimiz tinchligi va farovonligini qadriga yetishga xizmat qiladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar.**

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil.

2.I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch".-T.: "Ma'naviyat",2008.

3.Amur Temur o'g'itlari (to'plam): Tuzuvchilar: B.Ahmedov, A.Aminov.-T.: Navro'z, 1992 yil.

4.Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'quvchisining psixologiyasi.-T.: O'qituvchi 1999yil.